

**ZAYTUN(OLEA EUROPEA L) O‘SIMLIGINING SURXANDARYO IQLIM SHAROITIGA MOSLASHUVI**

**S.A.Abdishukurov, A.P.Saparov, B.A.Eshmurzayev, Z.Sursunova**  
*Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Bandixon ilmiy tajriba stansiyasi*

**MAQOLA MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received:28.04.2026*

*Revised: 29.04.2026*

*Accepted:30.04.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Zaytun, Olea europaea L., Surxandaryo viloyati, Qiziriq tumani, iqlimga moslashuv, agroekologik sharoit, qurg‘oqchilik, fenologik kuzatuv natizalari.*

*Mazkur tadqiqotimizda zaytun (Olea europaea L.) o‘simligining Surxandaryo viloyati iqlim sharoitiga moslashuv xususiyatlari o‘rganiladi. Yurtimizga joylashgan bu hududning agroiqlimiy ko‘rsatkichlari, jumladan yuqori harorat, qurg‘oqchilik darajasi, yog‘ingarchilik miqdori tadqiqotimizda tahlil qilinadi. Ushbu so‘lim go‘shada ko‘chatlar o‘sishi, rivojlanishi va ekologik barqarorligiga ta‘sir aniqlangan. Tadqiqotimizning asosiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, Surxandaryo hududining tabiiy-iqlimiy sharoiti zaytun o‘simligini yetishtirish uchun yetarli darajada mos deb hisoblaymiz. Agrotexnik tadbirlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali bu go‘shada yuqori hosildorlikka erishish mumkin.*

**Kirish**

Sizga va bizga birdek ma‘lum bo‘lgan, Zaytun (Olea europaea L.) o‘simligi subtropik iqlim sharoitiga moslashgandir. Ekologik xususiyatga ega bo‘lgan ko‘p yillik daraxt hisoblanadi. So‘nggi yillarda uni O‘zbekistonimiz hududida, misol uchun: Surxandaryo viloyati sharoitida yetishtirishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Albatta, bundan dehqonlar samarali foydalanmoqda. Biz ushbu hududning atmosferasini issiq deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, qurg‘oqchil iqlimi, uzoq vegetatsiya davri hamda tuproq xususiyatlari zaytun o‘simligi uchun ma‘lum darajada qulay muhit yaratadi. Masalan: Qiziriq tumani misolida zaytun yetishtirish

texnologiyasini o'rganish, uning iqlimga moslashuv darajasini aniqlash va samarali agrotexnik tadbirlarni qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Zaytun o'simligining Surxandaryo iqlim sharoitiga moslashuv xususiyatlarini tahlil qilish asosiy maqsad qilib maqolamizda belgilandi.

**Introduksiya qilingan zaytun (*Olea europea L.*) o'simligining o'sishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish**

O'simliklarda vegetatsiya fazalarining o'tishini kuzatish shuni ko'rsatmoqdaki, ularning o'sish muddati nav xususiyati bilan bir qatorda ob-havo sharoitlariga kuchli darajada bog'liqdir. Daraxtlarda kurtaklarning yozilishi Surxandaryo sharoitida tuproqning harorati 10°C ga, havoning harorati 20+22 °C ga yetganda boshlanadi, garchi eng past harorat nolga yaqin bo'lsa ham kurtaklar yozila boshlashining eng erta muddati o'rganilgan zaytun navlarida kuzatuv davrida feralning ikkinchi yarmida, eng kechki – martning ikkinchi yarmida qayd etildi.

**1-Jadval: Zaytun (*Olea europaea L.*) o'simligining Surxandaryo sharoitida o'sishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish.**

Navlar	Navning kelib chiqishi	Kurtaklarning g'unchalay boshlashi	Gullash davri, sana			Mevalarning pisha boshlashi, sana	
			boshlanishi	tugashi	davomiyligi	Boshlanishi	Texnik pishishi
Arbequina	Turkiya	15.03.	16.04	23.04	8	08.09	07.10
Nikitiskiy	Turkiya	16.03	20.04	26.04	6		
Azerbayjan	Azarbayjon	15.03	17.04	23.04	6		
Gemlik	Turkiya	20.03	19.04	27.04	9		

O'rganilgan kolleksiyadan zaytunning Arbequina navi yuqori ekologik moslashuvchan bo'lib, O'zbekstonning quruq subtropiklari tuoroq-iqlim sharoitlarini yaxshi o'tkaza oladi va ular issiqqa chidamli hamda intensiv rivojlanuvchi hisoblanadi.

Daraxtli o'simliklar, shu jumladan zaytunni ildiz tizimining rivojlanishi ko'p jihatdan ko'chatni ko'paytirish usuluga bog'liqdir. Zaytun o'simligining ildiz tizimi kuchsiz rivojlangan bo'lib, tashqi muxitning noqulay sharoitlarini yomon o'tkazadi. Biroq, yuqori agrotexnikada zaytun yaxshi rivojlanadi va yuqori hosil beradi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Zamonaviy qishloq xo'jaligida qurg'oqchil hududlarga mos, iqtisodiy jihatdan foydali ekinlarni joriy etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, zaytun (*Olea europaea* L.) o'simligini yangi agroiklim zonalarda yetishtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Surxandaryo viloyati sharoitida ushbu o'simlikning moslashuv xususiyatlarini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Ayrim bir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zaytun daraxti asosan O'rta yer dengizi iqlimiga xos o'simlikdir. Issiq va quruq sharoitlarga yuqori darajada chidamliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, oxirgi yillarda uni Markaziy Osiyo hududlarida, jumladan O'zbekistonning janubiy viloyatlarida introduksiya qilish bo'yicha tadqiqotlar kengayib bormoqda.

Jumladan, Buriyev Xasan Chutbayevich va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Surxandaryo viloyati Qiziriq tumani sharoitida zaytun yetishtirishning agrotexnik xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda hududning iqlim va tuproq ko'rsatkichlari zaytun uchun mos ekani, ayniqsa yozning issiq va quruq kechishi o'simlikning biologik ehtiyojlariga mos kelishi ta'kidlangan. Shuningdek, nav tanlash, sug'orish tizimi va parvarishlash tadbirlarining hosildorlikka bevosita ta'siri ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Xususan, tomchilatib sug'orish tizimining qo'llanilishi suv resurslarini tejash bilan birga, ko'chatlarning o'sish jarayonini barqarorlashtirishi aniqlangan. Biogumus asosidagi substratlardan foydalanish esa tuproq unumdorligini oshirib, o'simliklarning ildiz tizimi rivojlanishini jadallashtiradi. Tadqiqotimizda aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, zaytun o'simligining Surxandaryo iqlim sharoitiga moslashuv xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishni maqsad qilinadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida dala kuzatuvlari, agroekologik tahlillar, tajriba usullari hamda taqqosiy-statistik metodlardan foydalanildi. Asosiy e'tiborni biz o'simlikning iqlim omillariga (harorat, namlik, yog'ingarchilik), tuproq xususiyatlariga va agrotexnik tadbirlarning samaradorligiga qaratdik.

**2-Jadval: Zaytun (*Olea europaea* L.) o‘simligining Surxandaryo sharoitida o‘rganish metodologiyasi**

T/r	Tadqiqot yo‘nalishi	Qo‘llanilgan usullar	O‘rganilgan ko‘rsatkichlar	Kutilgan natijalar
1	Iqlim tahlili	Meteorologik kuzatuv, statistik tahlil	Harorat, yog‘ingarchilik, namlik	Iqlimning zaytungamosliligini aniqlash
2	Tuproq tahlili	Laboratoriya va dala usullari	Tuproq tarkibi, pH, namlik sig‘imi	Tuproqning agroekologik bahosi
3	Ko‘chat o‘sishi	Fenologik kuzatuv	O‘shish tezligi, barg soni, ildiz rivoji	Moslashuv darajasini aniqlash
4	Sug‘orish tizimi	Tajriba (tomchilatib sug‘orish)	Suv sarfi, namlik darajasi	Suv tejamkorligini baholash
5	O‘g‘itlash usuli	Taqqosiy tajriba	Biogumus ta’siri, o‘shish ko‘rsatkichlari	Oziqlanish samaradorligini aniqlash
6	Kasallik va zararkunandalar	Monitoring va kuzatuv	Zararlanish darajasi	Himoya choralarining samarasi
7	Hosildorlik tahlili	Statistik usul	Meva miqdori, sifat ko‘rsatkichlari	Agrotexnik tadbirlar samaradorligi

**Tahlil va natijalar**

Yurtimizda dorivor deb hisoblangan, Zaytun (*Olea europaea* L.) o‘simligining Surxandaryo viloyati, xususan Qiziriq tumani sharoitiga moslashuv darajasi keng ravishda ommaga tahlil qilindi. Olingan natijalar iqlim, tuproq va agrotexnik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida baholandi. Avvalo, iqlim omillari tahlili shuni ko‘rsatdiki, hududda yoz (41-40°C gacha) va quruq kechishi zaytun o‘simligining biologik xususiyatlariga mos keladi. Uzoq vegetatsiya davri o‘simlikning to‘liq rivojlanishi, gullashi va meva tugish jarayonlarini ta’minlaydi. Qish mavsumining nisbatan yumshoq bo‘lishi esa ko‘chatlarning sovuqdan zararlanish xavfini kamaytiradi. Iqlimiy sharoitimizda hududning zaytunning tabiiy arealiga yaqin ekanligi aniqlandi.

Tuprog'i: Tadqiqot o'tkazilgan joyning tuprog'i qadimdan sug'orib kelinadigan tipik bo'z tuproq bo'lib kuchsiz qatlamli (0.5 dan oshmaydi) agroirrigatsion gorizontga ega. Mexanik tarkibi bo'yicha – changlanuvchi o'rtacha qumoq. Organik moddalar miqdori unchalik ko'p emas. Gumus miqdori haydalma qatlamda 0.6-0.8 % ni tashkil etadi.. Bu holat zaytun ildiz tizimining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi kuzatildi. Shaxsiy tahlillarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, tuproq sharoitlari zaytun yetishtirish uchun yetarli darajada mos hisoblanadi.

Xulosa qilinganda, Qiziriq tumani sharoitida zaytun o'simligining muvaffaqiyatli moslashishini kuzatishimiz mumkin. Yuqori hosildorlik ko'rsatkichlariga erishish imkoniyati mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov S. (2018). O'zbekiston sharoitida zaytun yetishtirish asoslari. Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti.
2. Bo'riyev X. CH, Jurayev E.B, Abdulayev S.B, Karimov .T (2019). Zaytundosh o'simliklarning morfo-biologiyasi, fiziologiyasi va ko'paytirish usullari. Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti.
3. Mirzaev I. (2020). Zaytun bog'larini parvarishlash va kasalliklar bilan kurash. Surxondaryo qishloq xo'jaligi jurnali, 3(15), 45–52.
4. FAO (2017). Olive growing and olive oil production in arid regions. Rome.
5. Rustamov B., & Karimov J. (2019). Denov tumanida zaytun navlarini tanlash va parvarishi. Surxondaryo viloyati agronomlari konferensiyasi materiallari.
6. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (2022). Zaytun yetishtirish bo'yicha qo'llanma. Toshkent.